

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BOTIROVA NAFOSAT XURMATBEK QIZI

**OROLBO‘YI KO‘CHMANCHI QABILALARINING O‘RTA OSIYO
XALQLARI HARBIY SAN‘ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI (MILODDAN
AVVALGI VI - MILODIY XIII ASRLAR).**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Botirova Nafosat Xurmatbek qizi

Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining O‘rta Osiyo xalqlari harbiy san‘ati taraqqiyotidagi o‘rni (miloddan avvalgi VI - milodiy XIII asrlar).....3

Ботирова Нафосат Хурматбек кизи

Рол кочевых племен Приаралья в развитии военного искусства народов Средней Азии (VI - XIII вв. н.э.).....25

Botirova Nafosat Khurmatbek kizi

The Role of the Nomadic Tribes of the Aral Sea Region in the Development of the Military Art of the Peoples of Central Asia (6th century BC – 13th century AD).....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications51

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BOTIROVA NAFOSAT XURMATBEK QIZI

**OROLBO‘YI KO‘CHMANCHI QABILALARINING O‘RTA OSIYO
XALQLARI HARBIY SAN‘ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI (MILODDAN
AVVALGI VI - MILODIY XIII ASRLAR).**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Tar 901 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Masharipov Qudrat Yuldashevich
tarix fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich
tarix fanlar doktori, professor

Abdirimov Razzoqberdi
tarix fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashning 2024-yil "8" noyabr soat 14:00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1465 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "22" oktyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil "22" oktyabr da 12 raqamli reestr bayonnomasi.)



M.K.Saribayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, dotsent

X.X.Matyakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

U.I.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi tarixiy jarayonlarda ko‘chmanchi qabilalarning o‘troq-dehqonchilik madaniyati markazlari bilan munosabatlari tarixini yanada kengroq o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan jahon xalqlari tarixiy taraqqiyotining uzviy qismi bo‘lgan ko‘chmanchi qabilalarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan birga harbiy soha taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyatini xolisona o‘rganish, ularning jahon tarixida tutgan o‘rnini yangi asoslarda ko‘rib chiqish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko‘pgina ilmiy tadqiqot markazlarida, xalqaro fondlar va oliy ta‘lim muassasalarida ko‘chmanchi qabilalarning siyosiy va harbiy faoliyatining jahon siyosiy jarayonlariga ta‘sirini, ularning harbiy salohiyatini, jang usullari, strategiyasi va taktikasini, ko‘chmanchi qabilalar harbiy san‘atining Sharq xalqlari harbiy san‘ati taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Umuman olganda mintaqa hududida yashab kelgan ko‘chmanchi qabilalar yaratgan harbiy san‘at nafaqat Sharq dunyosi, balki jahon xalqlari harbiy san‘ati rivojida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, O‘rta Osiyo davlatlarida harbiy soha taraqqiyotida ham qo‘shni ko‘chmanchi qabilalarning o‘rni beqiyos bo‘lganligini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar ma‘lumotlari to‘liq tasdiqlaydi.

Qadimgi va o‘rta asrlar davri o‘zbek xalqi harbiy san‘ati taraqqiyotida juda muhim rol o‘ynagan elatlar – baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug‘diylar, va Parkona (Farg‘ona)liklar qadimgi Sharq dunyosida ham jangavor xalqlar yoki elatlar sifatida dong taratganligi tarixdan ma‘lum. Ammo, jahon miqyosida bunday sharaflig ega bo‘lishda eng avvalo ular bilan qadimdan tarixiy taqdiri bir bo‘lgan qo‘shni ko‘chmanchi qabilalarning o‘rni beqiyos bo‘lganligini ham tan olish lozim. Biroq bu yo‘nalishda mintaqa ko‘chmanchi qabilalarining harbiy soha taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati yetarli darajada o‘rganilmagan. Jumladan, bu mavzuga oid yozma manbalar ma‘lumotlari arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida yakuniy xulosalar chiqarilmagan. Umuman, bu mavzuga oid yetarli darajada o‘rganilmagan ma‘lumotlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining O‘rta Osiyo xalqlari harbiy san‘ati taraqqiyotidagi o‘rni mavzusiga tegishli muammolarni turli yo‘nalishlar ma‘lumotlarini qiyosiy ko‘rib chiqish va umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish lozimligi bilan dolzarb ahamiyatga egadir. Zero, “...milliy harbiy san‘at tarixini chuqur o‘rganib, qo‘shinlarning tayyorgarlik borasidagi usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifalariga ustuvor ahamiyat beramiz”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyatini, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi Markazi binosini ochish marosimida so‘zlagan nutqi. 2018-yil, 15-iyun // <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>.

tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda 2018-yil 18-yanvar F-5181-son "Moddiy-madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishini hamda Vazirlar Mahkamasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, O'zbekistonning tarixi va madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilish kabi vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotida ko'chmanchi qabilalarning o'rni masalasini manbashunoslik ma'lumotlarini arxeologik tadqiqotlar va qisman, etnologiya, antropologiya va tarixiy geografiya fanlari ma'lumotlari bilan umumlashtirish va qiyosiy tahlil qilish asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki, bu mavzuga oid yozma manbalar ma'lumotlari ancha kam bo'lib, ba'zi hollarda bu borada bahsli masalalar anchagina.

Qadimgi va o'rta asrlar davri O'rta Osiyo harbiy san'ati taraqqiyotida ko'chmanchi qabilalarning o'rni masalasi maxsus mavzu sifatida dolzarb masala bo'lib, hanuzgacha ilmiy – nazariy jihatidan kam o'rganilgan. Shu jihatdan olganda ko'chmanchi qabilalarning O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rni muammosini manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtayi-nazaridan o'rganilishi masalasini xronologik jihatdan 3 guruhga bo'lish mumkin. Jumladan, birinchi guruh manbalariga miloddan avvalgi VI asrdan tortib milodiy IV asrgacha bo'lgan turli tillardagi manbalar taalluqli bo'lgani holda, ikkinchi guruh manbalariga IV – XIX asrlar manbalari kiradi. Uchinchi guruhga esa XX asr boshlaridan to hozirgacha bo'lgan davrda harbiy ish va harbiy san'at borasida olib borilgan tarixshunoslik tadqiqotlari kiradi.

Mavzuga oid tadqiqot natijalari va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi VI asrdan – milodiy XIII asrgacha bo'lgan davrda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rni masalasi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan va umumlashtirilmagan va bu tarix fanida o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi².

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi miloddan avvalgi VI asrdan – milodiy XIII asrgacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo xalqlarida harbiy san'at taraqqiyotida Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining o'rni masalasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yozma manbalarda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining harbiy san'ati masalasini ochib berish;

² Muammoning o'rganilganlik darajasi va uning tarixiy tadqiqotlarda aks ettirish masalasi tadqiqotning birinchi bobida alohida ko'rib chiqilgan.

Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san‘atining tarixshunoslik tadqiqotlaridagi tahlilini yoritib berish;

arxaik va antik davrlarda O‘rta Osiyo xalqlarida harbiy ishning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlab berish;

arxaik davr O‘rta Osiyo xalqlari harbiy salohiyati va unda qo‘shni ko‘chmanchi qabilalar o‘rnini ko‘rsatib berish;

antik davr O‘rta Osiyo xalqlari jang olib borish uslublari va harbiy yarog‘ – aslahalari turlari taraqqiyotida Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari omilini ko‘rsatib berish;

ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda kechgan etnosiyosiy va harbiy jarayonlarda Orolbo‘yi ko‘chmanchilarining ta‘sirini ochib berish;

X – XIII asrlarda O‘rta Osiyo davlatlarida harbiy soha taraqqiyotiga ko‘chmanchi qabilalar ta‘siri masalasi ko‘rib chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘rta Osiyoda harbiy san‘at taraqqiyoti va unda ko‘chmanchi qabilalarning o‘rni masalasi tanlangan.

Tadqiqot predmetini mavzuga oid yozma va arxeologik manbalar, ilmiy – tarixiy adabiyotlar, tarixshunoslik tadqiqotlari ma‘lumotlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, tarixiy ma‘lumotlarni qiyosiy va tanqidiy o‘rganish, umumlashtirish va tarixiy-qiyosiy tahlil qilish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arxaik davrda O‘rta Osiyo o‘troq xalqlari harbiy san‘at taraqqiyotiga Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari faqat talonchilik yurishlari, o‘zaro urushlar va shu kabi ziddiyatli jarayonlar kontekstida emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy omillar asosida ham o‘z ta‘sirini o‘tkazganliklari aniqlangan;

sovet davri va xorij tarixshunosligidagi O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlardagi o‘troq – ziroatkor xalqlari harbiy san‘ati sohasi taraqqiyotiga qo‘shni hududlarda yashovchi ko‘chmanchi qabilalarning ta‘siri haqidagi ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilish lozimligi hamda tarix fanida an‘anaviy bo‘lib kelgan ayrim ilmiy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish va yangicha baholash zarurati isbotlangan;

ilk o‘rta asrlar davomida O‘rta Osiyo hududlarida yirik davlatlarning mavjud bo‘lmaganligi oqibatida, kichik-kichik davlatlarning esa o‘z harbiy salohiyatini oshirish imkoniyatining cheklanganligi natijasida va Orolbo‘yi hududlaridan IV – VIII asrlar davomida ko‘plab ko‘chmanchi qabilalarning uzluksiz kirib kelishi oqibatida, bu qabilalar yirik davlatlarga asos solganliklari holda etnosiyosiy va ijtimoiy jarayonlar taraqqiyotiga hamda bu jarayonlarga uzviy bog‘liqlikda, jangavor qurol-aslahalar turlari va jang uslublarining takomillashuvida ham muhim o‘rin tutganliklari dalillangan;

O‘rta Osiyo hududlarida yashagan o‘troq-ziroatkor xalqlari o‘rta asrlar harbiy san‘ati va harbiy qurol-aslahalar turlari taraqqiyotiga, nafaqat ko‘chmanchi qabilalarning uzluksiz migratsiyalari yoki uzoq vaqt qo‘shni bo‘lib yashaganliklari, balki o‘troq xalqlarda o‘z harbiy salohiyatining rivojlantirishlari omillarining (hududiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar) cheklanganligi oqibatida ham bu sohaga qo‘shni ko‘chmanchi qabilalar kuchli ta‘sir qilganligi isbotlangan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fanlararo harbiy tarix, harbiy arxeologiya, manbashunoslik, tarixiy geografiya va harbiy kartografiya sohalaridagi yangicha ilmiy yo‘nalishlarini yaratish vazifalarini amalga oshirish, qadimgi va o‘rta asrlar tarixining harbiy, siyosiy va ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarini o‘rganishda ilmiy nazariy uslublarini takomillashtirishga imkon beradi va tarix fanini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyadagi talqin qilingan ma’lumotlardan O‘zbekiston tarixini o‘rganish va tayyorlashda, oliy o‘quv yurti talabalari yangi avlod adabiyotlarini yaratishda, qadimgi va o‘rta asrlar davridagi harbiy-siyosiy jarayonlarni, vohada harbiy sohaning taraqqiyotida ko‘chmanchi qabilalarning o‘rni aks etgan materiallarni eng yangi axborot texnologiyalari asosida (virtual) qayta tiklashda hamda tarixiy-madaniy merosni targ‘ib qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining O‘rta Osiyo xalqlari va jahon harbiy tarixida tutgan o‘rni mavzusiga oid manbalar hamda tarixshunoslik tadqiqotlari ma’lumotlari umumlashtirilgan va tarixiy-qiyosiy tahlil qilingan hamda tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar asosida maqolalar va monografiyalar nashr etilgan;

haligacha keng miqyosda o‘rganilmagan hamda ilmiy muomalaga tortilmagan yozma manbalar chuqur tahlil qilingan, manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiqot doirasiga tortilgan, muhim xulosalar va natijalarga kelingan;

tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar hamda unda ilgari surilgan taklif, tavsiyalardan harbiy, oliy va o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quv ishlar rejasida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda, shuningdek, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining eshittirishlarini tayyorlashda asos bo‘lib, muzey fondlari eksponatlarini yanada kengaytirishga va yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi mavzuni o‘rganishda asosiy tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar ma’lumotlari, zamonaviy yondashuvlar va qadimgi me’moriy obidalarni qayta tiklashda 3D modellashtirish texnologiyasidan foydalanilganligi hamda ilmiy ma’lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlilning qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining O‘rta Osiyo xalqlari harbiy san’ati taraqqiyotidagi o‘rni (miloddan avvalgi VI - milodiy XIII asrlar) mavzusi bo‘yicha chiqarilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

arxaik davrda O‘rta Osiyo o‘troq xalqlari harbiy san’at taraqqiyotiga Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari faqat talonchilik yurishlari, o‘zaro urushlar va shu kabi ziddiyatli jarayonlar kontekstida emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy omillar asosida ham o‘z ta’sirlarini o‘tkazganligi bo‘yicha natijalardan foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazining 2023-yil 6-martdagi 77-son ma’lumotnomasi). Natijada, O‘rta Osiyo ko‘chmanchi xalqlari qadimgi va o‘rta asrlar Sharq mamlakatlari harbiy san’ati taraqqiyotida va jahon harbiy tarixida muhim o‘rin tutganligi harbiylarni o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishiga hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

sovet davri va xorij tarixshunosligidagi O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlardagi o'troq-ziroatkor xalqlari harbiy san'ati sohasi taraqqiyotiga qo'shni hududlarda yashovchi ko'chmanchi qabilalarning ta'siri haqidagi ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish lozimligi hamda tarix fanida an'anaviy bo'lib kelgan ayrim ilmiy qarashlarni qayta ko'rib chiqish va yangicha baholash zarurati isbotlangan jarayonlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazining 2023-yil 6-martdagi 77-son ma'lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalar yoshlar tafakkurida tarixiy ongning shakllanishi va mustahkamlanishiga, mamlakatimiz tarixini o'rganishga qaratilgan ilmiy ko'nikma va yondashuvlar bo'yicha malakaga ega bo'lishga, tarix sohasidagi bilimlarini oshirishga imkon yaratgan;

ilk o'rta asrlar davomida O'rta Osiyo hududlarida yirik davlatlarning mavjud bo'lmaganligi oqibatida, kichik-kichik davlatlarning esa o'z harbiy salohiyatini oshirish imkoniyatining cheklanganligi natijasida va Orolbo'yi hududlaridan IV – VIII asrlar davomida ko'plab ko'chmanchi qabilalarning uzluksiz kirib kelishi oqibatida, bu qabilalar yirik davlatlarga asos solganliklari holda etnosiyosiy va ijtimoiy jarayonlar taraqqiyotiga hamda bu jarayonlarga uzviy bog'liqlikda, jangavor qurol-aslahalar turlari va jang uslublarining takomillashuvida ham muhim o'rin tutganliklari beqiyos o'rni masalasiga oid fikrlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DUK qoshidagi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Taqdimot" ko'rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 16-yanvardagi 06-28-86-son ma'lumotnomasi). Natijada, bu ma'lumotlar yoshlar va harbiylar ichida harbiy tarix va harbiy sohaga oid bilimlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

O'rta Osiyo hududlarida yashagan o'troq-ziroatkor xalqlari o'rta asrlar harbiy san'ati va harbiy qurol-aslahalar turlari taraqqiyotiga, nafaqat ko'chmanchi qabilalarning uzluksiz migratsiyalari yoki uzoq vaqt qo'shni bo'lib yashaganliklari, balki o'troq xalqlarda o'z harbiy salohiyatining rivojlantirishlari omillarining (hududiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar) cheklanganligi oqibatida ham bu sohaga qo'shni ko'chmanchi qabilalar kuchli ta'sir qilganligi bo'yicha xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DUK qoshidagi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Taqdimot" ko'rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 16-yanvardagi 06-28-86-son ma'lumotnomasi). Natijada, harbiy san'at tarixiga doir yangi ma'lumotlar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega. Zero, bu harakatlar yoshlarni vatanarvarlik, jasorat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga kasb qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 5 ta respublika va 3 ta xalqaro jurnallarda, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ish chop etilgan, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 5 ta maqola, 1 ta xorijiy jurnalda, 2 ta respublika anjumanida 2 ta xalqaro anjumanlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprobatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Yozma manbalar ma'lumotlari va tarixshunoslik masalalari**" deb nomlangan. Uning "*Yozma manbalarda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari harbiy san'ati masalasining aks etishi*" deb nomlangan birinchi paragrafida mavzuga oid yozma manbalar xronologik izchilikda hamda manbaning tili jihatidan tizimlashtirish asosida tahlil qilib chiqilgan.

Qadimgi va o'rta asrlar davri O'rta Osiyo harbiy san'ati taraqqiyotida ko'chmanchi qabilalarning o'rni masalasi maxsus mavzu sifatida dolzarb masala bo'lib, hanuzgacha ilmiy-nazariy jihatidan kam o'rganilgan. Shu jihatdan olganda ko'chmanchi qabilalarning O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rni muammosini manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganilishi masalasini xronologik jihatdan 3 guruhga bo'lish mumkin. Jumladan, birinchi guruh manbalariga miloddan avvalgi VI asrdan tortib milodiy IV asrgacha bo'lgan turli tillardagi manbalar taalluqli bo'lgani holda, ikkinchi guruh manbalariga IV – XIX asrlar manbalari kiradi. Uchinchi guruhga esa XX asr boshlaridan to hozirgacha bo'lgan davrda harbiy ish va harbiy san'at borasida olib borilgan tarixshunoslik tadqiqotlari kiradi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha eng qadimgi manba bo'lgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da eng avvalo aynan Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari xususida aniq ma'lumotlar keltirilmagan.

Bu o'rinda mazkur ko'chmanchi qabilalarning asosan qaysi hududlarda yashaganligi xususida aniq ma'lumotlar berilmasada, ularning O'rta Osiyoning o'troq vohalari aholisi harbiy san'ati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatganliklari aniq. Zero, ko'chmanchi qabilalarning dehqonchilik vohalariga talonchilik yurishlariga javoban o'troq aholi ularga qarshi harbiy taktika nuqtai-nazaridan biror-bir choralar ko'rishlari, harbiy rejalar ishlab chiqqanliklari tabiiy hol albatta³.

Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari hamda O'rta Osiyo hududidagi o'troq aholisi harbiy san'ati taraqqiyoti ilk bosqichlari haqidagi ma'lumotlarni Eron shohlari tosh kotibalari hamda saroylardagi devoriy tasvirlar orqali ham olish mumkin. Jumladan, Eron – ahamoniylari poytaxti Persepol xarobalari devoriy tasvirlarda O'rta Osiyoning sak – massagetlar, so'g'diylar, baqtriylar va xorazmliklar tasvirlari o'z aksini topgan⁴.

Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining harbiy san'ati aks etgan yozma manbalar ichida yunon-rim manbalari qisman aniqroq ma'lumotlar berishi bilan diqqatga sazovor. Jumladan, bu manbalar ichida eng dastlabkisi va asosiysi mashhur tarixchi Gerodot asari hisoblanadi. U o'z asarida massagetlarning harbiy san'ati, taktika va

³ Литвинский, Б. А. Древние кочевники «Крыша Мира» / Б. А. Литвинский. – М.: "Наука", 1972. – С. 14.; Пигулевская Н. Сирийские источники по истории народов СССР. – М. – Л., 1941. – С. 38-39.; Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л.: "Наука", 1947. – С. 214.

⁴ Луконин В.Г. Искусство Древнего Ирана. – М.: "Искусство", 1977. – С. 42.

strategiyasi, jang uslublari va harbiy qurollar turlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan hamda uning asarida massagetlar O'rta Osiyoning boshqa qadimiy qabilalari va elatlariga nisbatan keng ta'riflangan⁵. Jumladan, u yaxshi himoya vositalariga ega bo'lgan saklar va baqtriyalik otliq askarlar Doro I armiyasi tarkibida xizmat qilganlari haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tgan⁶.

Yunon geografi va tarixchisi Strabon ham O'rta Osiyo o'troq – dehqonchilik vohalari aholisining qo'shni ko'chmanchi qabilalar, aniqrog'i Orolbo'yi ko'chmanchilari bilan harbiy san'at borasida o'zaro ta'sirlar xususida ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan, u Gerodotning ma'lumotlaridan foydalanib, ularni qo'shimcha dalillar bilan boyitgan⁷.

Rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Ruf asarida, saklar og'ir qurollangan otliq qo'shin sifatida eslatiladi⁸.

Ilk o'rta asrlarda Orolbo'yi hududlarida endilikda asosan turkiy qabilalar yashab boshlagan bo'lib, navbatma-navbat ular goh xioniylar, kidariylar yoki eftaliylar kabi ko'chmanchi qabilalar konfederatsiyalari tarkibiga kirgan holda ulkan mintaqadagi harbiy – siyosiy jarayonlarda qatnashib, harbiy san'at taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar.

Bu davr O'rta Osiyo xalqlarining Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari bilan uzviy bog'liqlikda kechgan harbiy – siyosiy jarayonlar haqida ilk o'rta asrlar fors-sosoniy, vizantiya, arman va xitoy manbalarida ma'lumotlar uchratish mumkin. Jumladan, Egishe, Lazar Parbskiy, Movses Xorenatsi (Moisey Xorenskiy) kabi tarixchilar asarlarida Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari va ular bilan bog'liq ravishda O'rta Osiyodagi davlatlar So'g'diyona, Toxariston, Xorazm, Choch va Farg'ona davlatlari harbiy san'ati, harbiy qurol – aslahalari xususidagi ma'lumotlar aks etgan⁹.

Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari bilan o'rta asrlar O'rta Osiyo (Movarounnahr va Xuroson) aholisi o'rtasidagi harbiy sohadagi aloqalar va bu boradagi o'zaro ta'sir borasidagi ma'lumotlarni aks ettirgan eng asosiy manbalar jumlasiga arab – fors manbalari kiradi. Ammo, o'rta asrlar arab-fors manbalari juda ko'pchilikni tashkil qilgani uchun tadqiqotda ularning eng asosiylariga to'xtalib o'tildi.

XI asrdan tortib, to XIX asr oxirigacha bo'lgan davrlarda yaratilgan asarlarda, jumladan, “Hudud al-Olam”, Al-Istaxriy, Al-Makdisiy, Al-Jaxiz, Ibn Xassul, Nizomulmulk, Sharif Muhammad Mansur Muborakshoh, Shahobiddin an – Nasaviy, Otamalik Juvayniy, Ibn al – Asir, Rashididdin, Juzjoniy, Mirzo Ulug'bek, Hamdallah Kazvini, Mirxond, Abulg'ozzi Bahodirxonlarni hamda arman va gruzin (Kirakos Gandzaketsi, yepiskop Stepanos, Bagrationi David va “Kartlis Tsxovreba” gruzin tarixiy yilnomasi) manbalarini keltirish mumkin¹⁰.

⁵ Геродот. История. В девяти книгах / Перевод и примеч. Г.А.Стратановского – Л.: “Наука”, 1972. – Кн. I, 131, 201, 202, 205-214.III.201-216; VII, 18; IV, 11,12. IX. 2.15. – С. 43.

⁶ Yana bu haqda qarang: Черненко Э.В. Скифские доспехи и корейя // В кн.Древности Скифо-сарматского времени. – М., “Наука”,1968, – С. 143-154.

⁷ Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А.Стратановского. – М. – Л.: “Наука”, 1964. II.8.6; XVII. XVIII.2.X, 8,6,7; XI, 8, 7.

⁸ Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Сохранившиеся книги. Под ред. В.С. Соколова. –М, “Наука”, 1963, – С. 203-275.

⁹ Моисей Хоренский. История Армении / Новый пер. Н. О. Эмина. М.: Тип. В. А. Гатцук, 1893. – 363 с.

¹⁰ Худуд ул-алем. //МИТТ, Т.1. – М. – Л., 1939. – С. 216.; Толстов С.П. Древний Хоразм. – М.,1948. – С. 244.; Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик. //МИТТ, Т.1. – М. – Л., 1939. – С.180.; Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим

Xullas, IX asrdan o'g'uz qabilalari, XI asrdan esa qipchoq qabilalari nafaqat O'rta Osiyo, balki butun musulmon Sharqi xalqlarining harbiy san'ati taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shib, barcha yozma manbalar ma'lumotlari va arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari bu davrlarda o'g'uz-qipchoq harbiy san'at maktabining ko'pgina unsurlari butun Sharqda o'ziga xos harbiy "moda" – uslubga aylanganligini yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot mavzusiga oid ma'lumotlar mo'g'ul va xitoy tillarida yozilgan manbalarda ham uchraydi. Bu manbalar asosiy yashash makoni Orolbo'ylari bo'lgan qipchoq qabilalari harbiy san'ati haqida ma'lumotlar keltirilganligi bilan diqqatga sazovor¹¹.

Bu manbalardan tashqari o'rta asrlar Yevropa sayyohlari: Plano Karpini, Gilom Rubruk va Marko Polo esdaliklari, arman, gruzin va alban tilidagi yozma manbalarni ham tadqiqot doirasiga kiritish kerakki, bu manbalarda ham qisman bo'lsada Orolbo'yi ko'chmanchilari tarixini (asosan, o'g'uzlar va qipchoqlar) va shu bilan

фи маърифат ал-акалим. //Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Том 1, VII-XV вв.: арабские и персидские источники / под редакцией С. Л. Волина, А. А. Ромаскевича и А. Ю. Якубовского. – М. – Л.: Издательство Академия Наук СССР, 1939. – С. 185, 202.; Асадов Ф.М. Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. Баку: Элм, 1993. – 204 с.; Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). – Т.: “Янги аср авлоди”, 2008. – 240 б.; Мубаракшах Шариф Мухаммад Мансур. Адаб ал-харб ва-ш-шуджаат. Правила ведения войны и мужество // Пер. Дж. Наджмутдиновой и С. Шохуморова. – Душанбе: Мин. Обороны Республики Таджикистан. Таджикский высший военный колледж, 1997 – 128 с.; Шаҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолоддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти./ Камол Матёкубов таржимаси./ – Т.: Ўзбекистон, 2006. – 384 б.; Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо.(Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ. Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2015. – 504 б.; Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих (Полный свод истории). Избранные отрывки./ Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камалидина. – Т.: Узбекистан, 2006. – 560 с.; Рашид ад-Дин. Сборник летописей: в 3 т. / Пер.: А.К. Арендс, Ю.П. Верховский, О.И. Смирнова, Л.А. Хетагуров. – М., 2002. Кн. 1-2.2-3; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан таржима Б. Аҳмедов, Н. Норқулов ва М. Ҳасаний. Кириш сўзи, изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. – Тошкент: “Чўлпон”, 1994. – 224 б.; Мирхондинг “Равзат ус-Сафо асарида” Жалолоддин Мангуберди зикри / Сўз боши муаллифи М. Ҳасаний. – Т.: Фан, 1999. – 34 б.; Абулғози Баҳодирхон. Шажараи Турк. Сўз боши муаллифи Б. Аҳмедов. – Т.: Чўлпон, 1992. – 167 б.; Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-Гази хана хивинского / Пер.: А.Н. Кононов. – М. – Л., 1958. – 193 с.; Ҳамдаллаҳ Казвини. Тарихи гоузиди. // Трад. Й. Ле Странге. Парис, 1903. Вол. 1. 732 п.; Джузджани. Табакат-и Насири / Трад. Ҳ.Г. Равертй. Салсутта, 1960. Вол.1.2.; Степанос епископ. Летопис // Армянские источники о монголах. Извлечение из рукописей XIII-XIV вв. // Пер.: А.Г.Галстян. – М., 1962. – 155 с.; Багратиони Давид. История Грузии. // Сост.: А.Рогава. Т 6., 1971. – 271 с. Гандзакеци Киракос. История Армении // Пер.: Е.Е.Харитоновна. – М., 1976. – 355 с. Парсадан Горгиджанидзе. История Грузии. // Пер.: Р.К.Кикнадзе, В.С.Путуридзе. Т 6., 1990. – 182 с.; Армянские источники о монголах. Извлечение из рукописей XIII-XIV вв. / Пер. А.Г. Галстян. – М., 1962. – 155 с.; Анонимный грузинский “Хронограф” XIV века / Пер.: Г.В. Цулая. – М., 2005. – 152 с.; Картлис Цховреба / Ред. С.Г. Каухчишвили. Тбилиси: Издательство АРТАНУДЖИ. 2008. Т. 1-2. – 456 с.; Иванин М. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур (Тарж. А. Маҳкамов). – Тошкент: Фан, 1994. – 240 б.; Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия //В.В. Бартолд. Сочинения. – М., 1963. Т. 1. 760 с.; Novorth Н. History of the Mongols from the 9 th. to 19 th. Century. London, 1876-1888. Pt. I-III.; Д'Оссон К. История монголов от Чингизхана до Тамерлана. / Пер.: Н. Козмин. – Алматы, 1996. – 255 с.; Груссе, Рене. Чингисхан. Покоритель вселенной / Пер.: Е.А. Соколов. – М.: Молодая гвардия, 2008. – 285 с.; Гумилев Л. Н. Тысячелетие вокруг Каспия. – М.: АСТ, АСТ. – Москва, 2008. – 410 с.

¹¹ Сокровенное сказание монголов // Перевод и замечания С.А.Козина. – М.: Наука, 1941.; Мэн-да Бэй-лу (Полное описание монголо-татар) / Мэн-да Бэй-лу. – М.: “Наука”, 1975. – 286 с.; Шэн-у цин чжен-лу (Описание военных походов Чингизхана). www.literrus.com.; Перводы из Юан-ши (История династии Юан) // Храпчевский Р.П. Военная держава Чингисхана. – М.: АСТ ЛЮКС, 2005. – С. 429-540; Лубсан Дабсан. Алтан тобчи (Золотое сказание). – М.: Наука, 1975. – 231 с.

bog'liq holda ularning harbiy san'ati tarixini ham o'rganishda yordamchi manbalar sirasiga kiradi¹².

Dissertatsiya birinchi bobining "Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari harbiy san'atining tarixshunoslik tadqiqotlari tahlili" deb nomlangan ikkinchi paragrafida XX asr boshidan – XXI asr boshigacha bo'lgan davrda yozilgan asarlar tahlil etilib, ko'chmanchi qabilalarning O'rta Osiyo qadimgi va o'rta asrlar davlatlari va o'troq aholisi harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tadqiqot ishlari bilan asosan sovet davri tadqiqotchilari hamda hozirgi davrgacha chet el tadqiqotchilarining asarlari kiradi. Bu mavzu borasida tadqiqotlarni biz o'rganilishi jihatidan uch davrga taqsimlaymiz. Birinchi XIX – XX asrda asosan rus harbiylari va yevropalik tadqiqotchilar asarlari kirs, ikkinchi davri XX asr boshlaridan – XXI asr boshlarigacha sobiq sovet davri tarixchi va arxeologlarining tadqiqotlari hamda yevropalik olimlar tadqiqotlari, uchinchi XX asrning 90 yillaridan – XXI asr boshlarida O'zbekistonlik tarixchi va arxeologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiradi. Ammo, bu tadqiqotlar ham Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rni masalasini to'la-to'kis ochib beruvchi tadqiqot hisoblanmaydi.

Jumladan, K.Bosvort, D. Seyagi, Aziz Rabboniy, Z.M.Buniyatov, O. Tonariy, Maryam Gurbuz, Ibrahim Qofaso'g'li, Jo'shqin Erdogan, R.Ismoil, A. Suboshi, S.G. Agadjanov, R.A. Guseynov, S. Axinjanov, Y.V. Pilipchuk, V.M. Zaporozjets, Y.O. Agayev, L. Bobrov, M. Gorelik, I.L. Izmaylov, D.M. Timoxin, A. Kushkumbaevlar asarlarida Orolbo'yi ilk o'g'uz qabilalari hamda qipchoq qabilalarining harbiy san'ati, mazkur qabilalarning nafaqat Sharq xalqlari balkim, Sharqiy va Markaziy Yevropa davlatlari harbiy san'ati taraqqiyotidagi o'rni haqida nisbatan ko'proq ma'lumotlar keltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega¹³.

¹² Путешествия в восточные страны, Плано Карпини и Гилом де Рубрук. – Алматы: Ылым, 1993. – 242 с.; Анонимный грузинский «Хронограф» XIV века / Пер.: Г.В.Цулая. – М., 2005. – 152 с.; Багратиони Давид. История Грузии / Сост.: А.Погава. Т. 6. – М., 1971. – 271с.; Гандзакеци Киракос. История Армении / Пер.: Л.А.Ханларян. – М., 1976. – 355 с.; Обзор источников по истории Азербайджана / Пед. З.М.Буниятов. – Баку, 1964. – 36 с.; Парсадан Горджианидзе. История Грузии / Пер. П.К.Кикнадзе, В.С.Путуридзе. Т. 6. – М., 1990. – 182 с.; Степанос епископ. «Летопис» // Армянские источники о монголах. Извлечение из рукописей XIII-XIV вв. / Пер. А.Г.Галстян. – М., 1962. – 155 с.; Себастици. «Летопис» // Армянские источники о монголах. Извлечение из рукописей XIII-XIV вв. / Пер.: А.Г.Галстян. – М., 1962. – 155 с.

¹³ Босворт К. Нашествия варваров: Появление тюрков в мусульманском мире // Мусульманский мир. 950-1150. – М.: Восточная литература, 1981. – С. 20-35. <http://kronk.spb.ru/library/bosworth-ke-1981.htm>; Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов. // – М., 1986. – 247 с.; o'sha muallif: Военная организация государства Хорезмшахов (1097-1231г.) // Известия АН Аз ССР. Сер. История, философия, право. 1982. – № 1. – С. 85-95.; o'sha muallif: Государство Атабеков Азербайджана (1136-1225). – Баку, 1978. – 271 с.; Иброхим Кафес ўгли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. // Туркчадан Назарбек Рафим таржимаси. – Тошкент: "Наврўз" нашриёти. 2016. – 316 б.; Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии. – Ашхабад: Ылым, 1969. – 297 с.; o'sha muallif: Селджукиды и Туркмения в XI-XII вв. – Ашхабад: Ылым, 1973. – 165 с.; Гусейнов Р.А. К истории тюрков XI-XII вв. (по материалам сироязычной хроники XII в.) // Труды Института истории. Т. XII. – Баку, Наука АзССР, 1957 http://www.vostlit.info/Texts/rus4/Mychel_Syr/text6.phtml?id=12448; Ахинджанов С.М. Из истории взаимоотношений кипчаков и Хорезма в 12-нач.13в. – Алма-Ата, 1973. – 136 с.; o'sha muallif: Кипчаки и Хорезм в канун монгольского нашествия // Вестник АН КазССР. 1970. – № 1. – С. 23-34.; o'sha muallif: Кипчаки в истории средневекового Казахстана. – Алматы, 1995. – 296 с.; Пилипчук Я.В. Военное искусство огузов и тюрков-селджуков (источниковедческий и военно-исторический аспекты). Ч. 1-10 // <https://m.realnoevremya.ru/articles/119294-istoriya-oguzov-i-turok-seldzhukov-ot-yaroslava-pilipchuka>; o'sha muallif: Военное искусство кипчаков / Тюркские кочевники Евразии (кимаки, кипчаки, половцы) – Казан: Изд-во «Ихлас»; Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2013. – С. 186-205.; Запорожец В.М. Селджуки. – М., Воениздат, 2011. http://oldevrasia.ru/library/V--M--Zaporozhets_Seldzhuki; Агаев Юсиф Шукур Оглы. О военном искусстве по «Кутаду Билик» Юсифа Баласагунского // Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 2015.

O‘zbekiston tarixchi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlari mavzuga oid adabiyotlarni tashkil etadi. Ammo, shu o‘rinda afsus bilan ta’kidlash lozimki, hozirgacha Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining juda qadim zamonlardan mo‘g‘ullar bosqini davrigacha bo‘lgan davri harbiy san‘atining o‘troq-dehqonchilik tamaddunlarining va davlatlarining harbiy san‘ati taraqqiyotidagi o‘rni masalasiga juda sust e‘tibor qaratilgan. Jumladan, F. Hasanov, X. V. Dadaboyev, Azamat Ziyoyeva, S. Saburova, Sh. Saidov, D. H. Ziyoyeva, Q. Masharipov, B. Abdirimovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bu mavzuga tegishli bo‘lgan masalalar qisman o‘rin olgan¹⁴. Ayniqsa, F. Hasanov va jamoa muallifligida yozilgan, O‘rta Osiyo va O‘zbekiston xalqlari harbiy san‘ati tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda O‘rta Osiyo xalqlarida shakllangan jang qilish usullari, taktika va strategiyalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lsada, bu masalaning ko‘chmanchilar dunyosi harbiy san‘ati taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda yaxlit ilmiy muammo sifatida ochib berilmagan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi: **“Miloddan avvalgi VI – milodiy III asrlar O‘rta Osiyo xalqlari harbiy san‘ati taraqqiyoti va unda ko‘chmanchi qabilalar o‘rni”** deb nomlanadi. Ushbu bobning *“Arxaik va antik davrlarda O‘rta Osiyo xalqlarida harbiy ishning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”* deb nomlangan birinchi paragrafida miloddan avvalgi VII asrdan milodiy IV asrgacha bo‘lgan davrda Orolbo‘yi va O‘rta Osiyo hududlarida harbiy ishning shakllanishi va rivojlanish

– С. 12-17.; Aziz Rabbani, A Short History of Khuwarzamsahs, Pakistan Historical Society Publication No. 63, Karachi Pakistan, 1978. – 201 p.; Ойдин Тонарий. Жалолитдин Хоразмшоҳ ва унинг даври. (Турк тилидан Бобоҳон Муҳаммад Шариф таржимаси). – Т.: Шарк, 1999. – 86 б.; Мерем Гўрбўз. Ҳаризмшаҳлар: Девлет Теҳкилати, Економии, Кўлтўр. – Истанбул: Боғазиси Яйинлари. 2014. – 336 с.; уана унинг: Ҳаризмшаҳларда девлет теҳкилати, економик ве кўлтўрел ҳаят.– Истанбул: Истанбул Ўниверситеси Яйинлари, 2005. – 327 с.; Реҳан Исмаил, Тхе Лион оф Кхуварзам & Мангол Аттаск, Ал-Манҳал Публисатионс Карачи, 2014; Соғқун Ердоған. Ҳарезмшаҳлар Ануштегиньден Селаледдинье. – Истанбул: Селенге яйинлари. 2020. – 128 с.; Ебубекир Субаши. Тўркистан Шаҳини Селаледдин Ҳарезмшаҳ. – Истанбул: Селик Яйиневи, 2020. – 272 с.; Бобров Л.А. Вооружение и тактика восточных и западных монголов в эпоху позднего Средневековья (XVII в.) // Историко-культурное наследие Северной Азии. Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2001. – С. 11-19.; Бобров Л.А., Худяков Ю.С. Вооружение и тактика кочевников Центральной Азии и Южной Сибири в эпоху позднего Средневековья и Нового времени (XV – первая половина XVIII вв.). СПб.: Факультет филологии и искусств СПбГУ, 2008. – 770 с.; Горелик М.В. Степной бой (из истории военного дела татаро-монголов) // Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии. – М., 1990. – С. 155-160.; Тимохин Д.М. Арабо-персидские источники и историография о хорезмшахе Джалал ад-Дине Манкбурны: диссерт. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – М., 2008. – 198 с.; о‘sha muallif: Соперник Чингиз-хана: хорезмшах Джалал ад-Дин Манкбурны, личность и эпоха. – М., 2013. – 268 с.; о‘sha muallif: Тюркские кочевники в составе хорезмийской армии при Ала ад-Дине Мухаммаде ибн Текише и Джалал ад-Дине Манкбурны // VII международная конференция «Источники по истории кочевников средневековой Евразии». – М., 2013. – С. 76-78.; Кушкумбаев А.К. Институт облавных охот и военное дело кочевников Центральной Азии. Сравнительно-историческое исследование. Кокшетау: «Келешек-2030», 2009. – 170 с.; Кушкумбаев А.К. Значение засады в монгольской стратегии и тактике ведения боевых действий // Золотоордынская цивилизация. Вып. 5. Казан: ООО «Фолиант», 2012. – С. 181-192.; Кушкумбаев А.К., Бобров Л. А. Монгольская тактика ведения степного боя // Военное дело кочевников Казахстана и сопредельных стран эпохи Средневековья и Нового времени. Астана: ИП «БГ-принт», 2013. – С. 5-47.; Измайлов И.Л. Военное искусство // История татар с древнейших времен в семи томах. Т.III. – Казан: Институт истории им. Ш. Марджани АН РТ, 2009. – С. 422-431.

¹⁴ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. // – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2018. – 440 б.; Дадабоев Х.В. Ҳарбий санъат тарихи. // – Т.: 2013. – 36 б.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарк, 2000. – 302 б.; Сабурава С. Ануштагин – Хоразмшоҳлар даврида Хоразм (1097-1231 йй.). – Т.: Ниҳол, 2008. – 162 б.; Саидов Ш. Султон Жалолитдин Мангуберди давлати ва жанговор ҳаракатлар харитаси. – Тошкент, 2000. – 184 б.; Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимги даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; масъул муҳаррир: Д.Х. Зияева / – Т.: “Шарк”, 2012. – 256 б.; Машарипов Қ. Ю. Жалолитдин Мангуберди – буюк ватанпарвар саркарда. – Тошкент: “Наврўз”. 2019. – 400 б.; Абдиримов Б.М. Икки буюк саркарда: Жалолитдиндан Кутузгача. – Тошкент: Ёшлар Медиапринт, 2021. – 248 б.

bosqichlari yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

O'rta Osiyo xalqlarining arxaik davr tarixida talaygina munozarali masalalar mavjud. Bunday muammoli masalalar jumlasiga yana mazkur davrlar o'troq dehqonchilik vohalari bilan ko'chmanchi – chorvador qabilalari o'rtasidagi munosabatlari qay darajada bo'lganligi masalasi ham kiradi. Eng avvalo bu munosabatlar qanday asoslarga qurilgan edi, ya'ni faqat iqtisodiy aloqalar ehtiyojidan kelib chiqib munosabatlar yo'lga qo'yilganmi yoki siyosiy – ijtimoiy munosabatlar talablari asosida yo'lga qo'yilganmi degan masalaga oydinlik kiritish lozim bo'ladi¹⁵. Bu muammoni hal qilish asosida arxaik davrda O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari va uning omillari mavzusiga aniqlik kiritiladi. Zero, o'troq – dehqonchilik tamaddunlari sohiblari harbiy san'ati taraqqiyotida aynan shu qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan munosabatlar birinchi darajali omillardan hisoblanadi. Bu davrning eng muhim yodgorliklari jumlasiga Orolbo'yi yarim o'troq qabilalari yodgorliklari (ayniqsa qabrlar) kiradi. Bu yodgorliklardan topilgan turli buyumlar arxaik davrda Orolbo'yi ko'chmanchilari bilan o'troq vohalar ziroatkor aholisi o'rtasidagi munosabatlarning, jumladan, harbiy munosabatlarning qay darajada bo'lganligini yaqqol namoyon qiladi¹⁶.

Miloddan avvalgi VI asrning 30 – yillarida O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining bir qismi, Eron – ahamoniylari davlati tarkibiga kiritildi. Miloddan avvalgi VI-V asrlar voqealari ko'plab yozma manbalarda o'z aksini topgan bo'lib, bu yozma manbalarda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari, yetakchi harbiy kuch sifatida eslatiladi.

Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotidagi keyingi bosqich bu antik davrlar bo'lib, miloddan avvalgi IV va milodiy III asrlarni o'z ichiga oladi.

Bu davrda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari O'rta Osiyo o'troq xalqlari va davlatlari bilan birga qadimgi Sharq va ulkan Evrosiyo dashtlarida kechgan siyosiy jarayonlarga jalb qilinib, bu jarayonlarda juda katta o'rin tutganlar.

Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari bilan bog'liq ravishda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari Sharq xalqlari, jumladan, O'rta Osiyo davlatlarida

¹⁵ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимги даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; масъул муҳаррир: Д.Х. Зияева. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.7.

¹⁶ Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры // ТХАЭЭ. Т. XI. – М., 1979. – С. 7-76; о'sha muallif: Скотоводческие племена в древнем Хорезме // Культура и искусство древнего Хорезма. – М., 1981. – С. 121-130; о'sha muallif: Изучение памятников Присарыкамьшской дельты Амудары в 70-80-е годы // Скотоводы и земледельцы левобережного Хорезма (древность и средневековье). Ч. I. – М., 1991. – С. 67-98; о'sha muallif: Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в. н.э. – М.: Наука, 1999; Болелов С.Б. Крепост Аяз-кала 3 в правобережном Хорезме // Приарале в древности и средневековье. – М.: ИВЛ РАН, 1998. – С. 116-134.; Бижанов Е., Ходжаниязов Г.К. Археологический комплекс Бутентау // Археология Приарала. – Нукус, 2003. Вып. VI. – С. 33-36.; Бетте А.В., Ягодин В.Н. Раскопки Ташхирмантепе // Археологические исследования в Узбекистане в 2001 г. – Самарканд, 2002.; Болелов С.Б. К вопросу о южных и юго-западных связях Хорезма во второй половине II тыс. до н.э. по археологическим данным (древнехорезмийский археологический комплекс) // Центральная Азия. Источники. История. Культура. – М., 2005. – С. 215-234.; о'sha muallif: Хорезмийское государство // История государственности Узбекистана. Т. I. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 193-210.; Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза ва илк темир даври тарихи (маданият, ижтимоий – иқтисодий ва сиёсий муносабатлар муаммолари: Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: ЎЗМУ, 2018. – 26 б.; Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. Тарих фан. докт. (DSc) дисс. ... автореф. – Тошкент: Тошкент кимё технология институты, 2019. – 54 б.

harbiy sohaning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilarki, bu yozma manbalar ma'lumotlari va arxeologik tadqiqotlar natijalari orqali to'liq tasdiqlangan.

Buni arxeologik tadqiqotlar natijalari ham yaqqol ko'rsatadi. Jumladan, 1909 va 1985-yillarda Sibir hududlaridan topilgan kumush idishlarda tasvirlangan og'ir qurollangan jangchilar tasvirlari haligacha bahs-munozaralar markazida bo'lib kelmoqda. Bu idishlarning O'ra Osiyoda (tadqiqotchilar fikricha uchta hududda: So'g'd, Xorazm va Yettisuv) ishlab chiqarilganligi to'liq isbotlangan bo'lsada, ularda tasvirlangan og'ir qurollangan otliq jangchilar tasvirlari Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari harbiy san'atiga xosligi ham olimlar ichida shubha uyg'otmaydi¹⁷. Chunki, bu tasvirlar Qang' va Kushon davlatlariga xos bo'lgan boshqa tasvirlarga juda o'xshash bo'lib, mazkur davlatlar esa ko'chmanchi qabilalar tomonidan barpo qilinganligi ham juda yaxshi ma'lum.

Ushbu bobning "*Arxaik davr O'rta Osiyo xalqlari harbiy salohiyati va unda qo'shni ko'chmanchi qabilalar o'rni*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida arxaik davrda O'rta Osiyo xalqlari harbiy salohiyati va unda qo'shni ko'chmanchi qabilalar o'rni masalasi qiyosiy tahlil orqali ochib berilgan.

Miloddan avvalgi VII asrga kelib, Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari harbiy san'atining O'rta Osiyo o'troq dehqonchilik vohalari aholisi harbiy san'ati taraqqiyotiga qay darajada ta'sir qilganligini Xorazm vohasi aholisining harbiy san'ati taraqqiyotida yaqqol namoyon bo'ladi. Zero, O'rta Osiyo xalqlari ichida xorazmliklar Baqtriya va So'g'diyona hududlariga nisbatan Orolbo'yi ko'chmanchilari bilan yaqinroq siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy aloqada bo'lganlar. Jumladan, Quvisoy-2 maskani madaniy qatlamidan olingan bronzadan qilingan ikki, uch qirrali, to'rt uchli va aylana shaklga ega bo'lgan kamalak o'qlari arxaik davr Xorazm voha aholisining harbiy soha taraqqiyoti manzarasini yaqqol tasvirleydi. Jumladan, B.I.Vaynberg Quvisoy manzili bronza kamon o'qlari klassifikatsiyasini ishlab chiqishda tadqiqotchi K.F.Smironov tomonidan taklif qilingan sarmatlar kamon o'qlari klassifikatsiyasiga asoslangan¹⁸. B.I.Vaynberg Sariqamish havzasi janubida joylashgan ilk temir davriga mansub bo'lgan Quvisoy manzilidan olingan kamon o'qlari kompleksini ikki, uchburchak va noto'g'ri to'rtburchak va uch qirrali tiplarga ajratgan¹⁹. Bundan kelib chiqib, miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan boshlab, O'rta Osiyo o'troq aholisi qo'shni chorvador qabilalarda keng tarqalgan va uzoqqa yo'naladigan tarkibi murakkab, o'ta samara beradigan skif tipidagi kamonidan foydalanganlar va bu kamon o'qlari ham xuddi ko'chmanchilar qo'llagan o'q uchlari kabi bo'lgan.

¹⁷ Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд – во МГУ, 1948. – С. 211-227.; Даркевич В. П. Художественный металл Востока. Произведения восточной торевтики на территории европейской части СССР и Зауралья – М.: Л.: Наука, 1976. – 198 с.; Гемуев И. Н. Еще одно серебряное блюдо из Северного Приобья // Изв. СО АН СССР, сер. истории, филологии и философии. – Новосибирск, 1988. – № 3. – Вып. 1. – С. 39-48.; Бауло А. В. Связь времен и культур (серебряное блюдо из Верхне-Нилдина) // Археология, этнография и антропология Евразии. 2004. – № 3. – С. 127-136.

¹⁸ Смирнов К.Ф. Вооружение сарматов. – М, "Наука", МИА, – № 101, 1961, – С. 37.

¹⁹ Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры /// ТХАЭЭ. Т. XI. – М., 1979. – С. 7-76.

Umuman olganda, nafaqat xorazmliklar balki, Baqtriya va So'g'diyona aholisi ham harbiy sohada sak-skif kamonidan foydalanganliklarini arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari to'liq tasdiqlaydi²⁰.

Arxaik davrda O'rta Osiyo hududlarining bevosita Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari bilan aloqalari har taraflama yaqqol namoyon bo'lishi, miloddan avvalgi VI asrda ahamoniylar saltanatiga qarshi olib borilgan urushlari hamda miloddan avvalgi 490-480 yillarda ahamoniylar qo'shini tarkibida fors-yunon urushlarida qatnashganligi payti bo'ldi²¹.

Ushbu bobning "*Antik davr O'rta Osiyo xalqlari jang olib borish uslublari va harbiy yarog' – aslahalar turlari taraqqiyotida Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari omili*" deb nomlangan uchinchi paragrafida antik davrda O'rta Osiyo xalqlari jang olib borish uslublari va harbiy yarog' – aslahalar turlari taraqqiyotida Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari omili masalalari ochib berilgan.

Orolbo'yi ko'chmanchilari antik davrda nafaqat O'rta Osiyo miqyosida balkim, O'rtayer dengizigacha bo'lgan hududlar hamda Sharqiy Yevropa dashtlarini o'z ichiga olgan ulkan mintaqa doirasida siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarda nihoyatda faollashadilar. Zero, bir tarafdin Qadimgi Sharq mintaqasining katta hududlarini egallagan va Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining bir qismini o'z davlati tarkibiga qo'shib olgan Eron – Ahamoniylari davlati bilan siyosiy – harbiy munosabatlarga kirishishi natijasida Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari mazkur ulkan hududdagi davlatlar va xalqlar harbiy san'ati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar.

Antik davr Orolbo'yi va xususan O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'atining eng dolzarb muammolaridan biri bu og'ir qurollangan otliq qo'shinning alohida turi "katafraktariylar" qo'shinining paydo bo'lishi hududi masalasidir. Chunki, bir guruh olimlar bu turdagi qo'shinning paydo bo'lishini o'troq aholi, xususan Xorazm vohasi bilan bog'lasalar²², bir guruh olimlar esa bu qo'shin turi Aleksandr Makedonskiyning yurishlari bilan bog'lab, uning goplitlardan iborat falangasiga qarshi mazkur turdagi otliq qo'shinlarning paydo bo'lishiga olib kelganligini ta'kidlaydilar²³. Uchinchi

²⁰ Пянков И.В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2013. – С.112-131.; Литвинский Б.А. Древние кочевники "Крыши мира". – М.: ГРВЛ. 1972. – 272 с.; Пугаченкова Г. А. О панцирном вооружении парфянского и бактрийского воинства // Вестник древней истории. 1966. – № 2. – С. 27-43.

²¹ Геродот. o'sha asar... – С. 81-94, 304-305,425-426.

²² Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд – во МГУ, 1948. – С. 211-227.; Кардини Ф. Истоки средневекового рыцарства: Пер. с ит./ Вступ. ст. В. И. Уколовой. Общ. ред. В. И. Уколовой и Л. А. Котелниковой. – М.: Прогресс, 1987. – С. 47.; Мамбетуллаев М.М. Релефное изображение всадника на керамической фляге из Хумбуз-Тепе. // СА, 1977, – № 3. – М.: "Наука". – С.278-281., рис. 1 на вкл. н с. 128; уапа uning: Вооружение и военное дело Хорезма // Археология Приарала, Т, Вып, – № 1, 2003. – С. 21-31; Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. - VIII в. н.э. – М.: Восточная литература, 1999. – С. 123-130.; Гаибов В.А., Кошеленко Г.А. От Хорезма до Боспора: о "сарматской" посадке всадников // Проблемы истории, филологии, культуры (ПИФК). 2013. – № 2. – С. 286-296.; Иванов С.С. К вопросу о тяжелой кавалерии в древней Средней Азии на основе остракона из Хумбуз-тепе// Сборник статей международного форума молодых ученых стран СНГ. Ч. III. – Алматы, 2012. – С. 184-188.; o'sha muallif: К вопросу о защитном вооружении ранних кочевников Средней Азии / Вестник КНУ им. Ж.Баласагына, труды ИИМОПа, спец.выпуск к 15-летию ИИМОП, Бишкек, 2011. – С. 491-497.; Олбрихт М.- Я. К вопросу о происхождении конницы катафракт в Иране и Средней Азии.// Рол номадов евразийских степей в развитии мирового военного искусства. Научные чтения памяти Н.Э. Масанова // Алматы: Ылым. 2010. – С. 66-85.

²³ Горончаровский В.А., Никоноров В.П. Илуратский катафрактарий (К истории античной тяжелой кавалерии) // Вестник древней истории (ВДИ). – М.: Наука, 1987. – № 1. – С. 201-213.; Черненко Э.В. О времени и месте появления тяжёлой конницы в степях Эвразии. // Проблемы скифской археологии. / МИА – № 177. – М.: "Наука", 1971. – С. 35-38.; Хазанов А. М. Катафрактарии и их рол в истории военного искусства // ВДИ. 1968. –

guruh tadqiqotchilari esa “katafraktariylar” Sharqiy Yevropaning ulkan dasht hududlarida yashagan skif – sarmat qabilalari olamida birinchi bo‘lib, bu turdagi qo‘shin shakllanganligini qayd qiladilar²⁴. Ammo, har qanday holatda ham mazkur qo‘shin turining paydo bo‘lishi ko‘chmanchi qabilalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari ham o‘zlarining hissalarini qo‘shganliklari aniq.

Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlarining chuqur qiyosiy tahliliga asoslangan so‘nggi tadqiqotlar natijalari ham, antik davrda og‘ir qurollangan otliq jangchilarning paydo bo‘lishi borasidagi fikrlarda bu turdagi jangchilarning paydo bo‘lishi ko‘proq Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy ish sohasidagi faoliyatiga bog‘liqligi borasida yakdil xulosaga kelingan²⁵.

Bu borada ayniqsa, tadqiqotchilardan ko‘chmanchilar harbiy san’ati mavzusi bo‘yicha juda ko‘plagan tadqiqotlar olib borgan A.M. Xazanovning fikri diqqatga sazovor. Uning fikriga ko‘ra, katafraktariylar Yevrosiyoning ko‘chmanchi qabilalari dunyosi, ayniqsa Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari bilan O‘rta Osiyo va Eronning o‘troq dehqonchilik vohalari doimiy aloqalari sharoitida vujudga kelgan²⁶.

Tadqiqotning uchinchi bobini **“Milodiy IV – XIII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari harbiy san’ati taraqqiyotiga ko‘chmanchi qabilalar ta’siri”** deb nomlanadi. Mazkur bobda o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo va u bilan bog‘liq holda keyinchalik esa musulmon Sharqida yuz bergan siyosiy – harbiy jarayonlarda Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining tutgan o‘rni, harbiy san’at va harbiy aslahalar turlarining taraqqiyotiga ularning qo‘shgan hissalarini masalalari ochib berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda kechgan etnosiyosiy va harbiy jarayonlarda Orolbo‘yi ko‘chmanchilarining o‘rni”* deb nomlanib, unda IV – X asrlar davomida O‘rta Osiyo hududlarida ko‘chmanchi qabilalar bilan uzviy bog‘liq ravishda ro‘y bergan siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jarayonlarda, xioniyalar, kidariylar, eftaliylar va Turk hoqonligini barpo qilgan turkiy qabilalarning harbiy san’at taraqqiyotidagi o‘rni, arab xalifaligi tarkibida O‘rta Osiyo hududida vujudga kelgan davlatlar va ular bilan Orolbo‘yi qabilalari siyosiy munosabatlari masalalari tahlil qilingan.

№ 1. – С. 180-191.; Литвинский Б.А. Древние кочевники “Крыши мира”. – М.: ГРВЛ. 1972. – 272 с.; Пугаченкова Г. А. О панцирном вооружении парфянского и бактрийского воинства // Вестник древней истории. 1966. – № 2. – С. 27-43.

²⁴ Смирнов К. Ф. Вооружение савроматов // МИА. – М.: Изд-во Академии наук СССР, 1961. – № 101. – 160 с.; Хазанов А. М. Сложные луки эвразийских степей и Ирана в скифо-сарматскую эпоху // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М.: “Наука”, 1966. – С. 29-44; o‘sha muallif.; Очерки военного дела сарматов. – М.: “Наука”, 1971. – 172 с.; (2-э изд. испр. и доп. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2008. – 294 с.; Милукова А.И. Вооружение скифов. //Археология СССР. Свод археологических источников. Вып. Д. 1-4. – М.: Наука, 1964. – 91 с., 23 отд. л. табл.; Черненко Э.В. Скифских доспех. Киев: Наукова думка, 1968. – 191 с.; o‘sha muallif. Длинные копия скифов. Древности скифо-сарматского времени. – М.: “Наука”, 1984. – С. 231-235.

²⁵ Мамбетуллаев М.М. Вооружение и военное дело Хорезма //Археология Приаралья, – Т. Вып 1, 2003. – С.21-31.; Гаибов В.А., Кошеленко Г.А. От Хорезма до Боспора: о “Сарматской” посадке всадников // Проблемы истории, филологии, культуры (ПИФК). 2013. – № 2. – С. 286-296.; Иванов С.С. К вопросу о тяжелой кавалерии в древней Средней Азии на основе остракона из Хумбуз-тепе // Сборник статей международного форума молодых ученых стран СНГ. Ч. III. – Алматы, 2012. – С. 184-188.; Олбрихт М.- Я. К вопросу о происхождении конницы катафрактосов в Иране и Средней Азии. // Роль кочевников эвразийских степей в развитии мирового военного искусства. Научные чтения памяти Н.Э. Масанова. // Алматы: ЛЕМ. 2010. – С. 66-85.

²⁶ Хазанов А.М. Сложные луки эвразийских степей и Ирана в скифо-сарматскую эпоху. // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М.: “Наука”, 1966. – С. 13-14.

Ilk oʻrta asrlar davri jahon miqyosida tarixda “xalqlarning buyuk koʻchishi” deb nom olgan siyosiy jarayonlar bilan boshlangan edi. Shu jumladan, Oʻrta Osiyo hududida ham bu jarayon tarixiy manbalarda xioniylar va keyinchalik kidariylar deb nom olgan qabilalarning kirib kelishi bilan boshlanadi. Manbalarda bu qabilalar haqida maʼlumotlar juda kam boʻlgani holda, eron – sosoniylari imperiyasi bilan muvaffaqiyatli urushlar olib borganliklaridan xulosa chiqariladigan boʻlsa, bu qabilalar juda ham jangavor qabilalar boʻlganlar. Jumladan, deyarli barcha ilk oʻrta asrlar rim, arman va vizantiya manbalarida bu qabilalar aynan jangavorliklari bilan to Vizantiya davlatigacha mashhur boʻlganlar²⁷.

Milodiy V asrda Orolboʻylaridan yana bir qabila – eftaliylar kirib kelib, xioniy va kidariy davlatlarini boʻysundirib, Hindiston shimoligacha boʻlgan hududni egallaganlar. Yuqoridagi manbalarda eftaliylar ham oʻta jangavor qabila boʻlganligini, Eron sosoniylari yuz yildan ortiq vaqt ularga qarshi muvaffaqiyatsiz urushlar olib borganliklari qayd etilgan edi. Eron sosoniylari va arman – vizantiya manbalarida eftaliylar suvoriy qoʻshinlari oʻta tezkor va shiddatli hujumlari bilan dushmanlarini juda tezlikda tor – mor keltirishlari koʻp bora eslatilib oʻtilgan²⁸. Keyinchalik bu davlat Turk xoqonligi tomonidan tugatilib, ulkan hududlarda Buyuk Turk xoqonligi degan davlat vujudga keldi. Turk xoqonligida qoʻshin zarbdor qismlardan – kamon bilan qurollangan yengil otliqlar va ogʻir qurollangan otliqlardan, shuningdek, koʻp sonli yordamchi qismlardan: piyodalar, ugʻruq (pistirma – zahira qoʻshin), xizmatkorlar, taʼminot xizmati va boshqalardan iborat edi²⁹.

Umuman olganda, turkiy xalqlar jahon harbiy sanʼati taraqqiyotida muhim oʻrinni egallaydilar. Mashhur arab adibi Johiz (775-868) turkiy xalqlarning xislatlari haqida bitilgan “Manoqib al-atrok” asarida, “Sosoniy forslar barcha xalqlardan davlatni boshqarish sanʼatida, xitoyliklar hunarmandchilikda, yunonlar – ilm-fanda va turklar – harbiy sanʼatda ustundirlar” deb yozgan edi³⁰.

IX – X asrlarda otliq qoʻshinning roli oshgan. Nafaqat Oʻrta Osiyo davlatlarida balki, Yaqin va Uzoq Sharq davlatlari hukmdorlari turkiylarni oʻz xizmatlariga olishga harakat qilishgan. Ular orasida turkiy gulomlar (qullar) muhim oʻrin tutgan. Turkiylarning jangavorlik sifatleri Sharqda munosib baholangan. Chunonchi, IX asrdan boshlab, Somoniylar amirlarining, Vizantiya imperatorlarining va Abbosiy xalifalarning shaxsiy gvardiyasi turkiylardan iborat boʻlgan³¹.

²⁷ Bu haqda qarang: Боровкова Л. А. Народы Средней Азии III–VI веков (по древним китайским и западным источникам). – М.: Институт востоковедения РАН. 2008. – 368 с.

²⁸ Сказания Приска Панийского. Перевод С. Дестуниса. – Ученые записки 2-го отделения Императорской Академии наук, кн. VII, вып. 1, СПб., 1861. – 112 с.; Мовсес Хоренаци. История Армении. Перевод с древнеармянского языка, введение и примечания Гагика Саркисяна. Эреван: “Аястан”, 1990. – 348 с.; Моисей Хоренский. История Армении / Новый пер. Н. О. Эмина. М.: Тип. В. А. Гатцук, 1893. – 363 с.; Лазар Парбский. История Армении. Тифлис, 1904.; Иешу Стилиит. Сирийская хроника. – Пигулевская Н. В. Месопотамия на рубеже V и VI вв. – Труды Института Востоковедения» Т. XXXI. М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1940. – 176 с.; Аммиан Марцелин. Римская история / Пер. с лат. Ю. А. Кулаковского, А. И. Сонни. – Москва: АСТ: Ладомир, 2005. – 631 с.; Прокопий Кесарийский. Война с персами. Война с вандалами. Тайная история. Перевод и комментарии А. А. Чекаловой. М., 1993. – 576 с.

²⁹ Алланиязов Т.К. Военное дело кочевников Казахстана. – Алматы: Фонд “XXI век”, 1998. – С. 65-66.

³⁰ Bu haqda qarang: Асадов Ф.М. Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. – Баку: Ёлым, 1993. – С. 42-43.

³¹ Кадырбаев А. Ш. Тюрки эвразийских степей в средневековых империях арабов, иранцев, индийцев и китайцев. VII-X вв. // Иран-намэ, – № 1, 2007. – С.17-20.

IV – VIII asrlarda O‘rta Osiyo hududlarida o‘z hukmronligini o‘rnatgan xioniylar, kidariylar, eftaliylar kabi Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari va turk xoqonligini tashkil qilgan turkiy qabilalar O‘rta Osiyo hududlarini egallab, o‘zlarining harbiy san‘at namunalarini olib kirganlar hamda ilk o‘rta asrlar davri harbiy san‘ati taraqqiyotiga katta xissa qo‘shganlar. Buni arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlab, O‘rta Osiyo xalqlari shu davrdan boshlab, “sosoniy” tipidagi murakkab kamon turi, aslida esa “markaziy osiyo” tipidagi turkiylar kamondan foydalanib boshlaganlar³² hamda turkiy og‘ir qurollangan otlq jangchilari uslubidagi otlq qo‘shinlarini tuzganlar³³.

Bizgacha yetib kelgan Orlat manzilgohidan (Samarqand viloyati, Qo‘shrabot tumanida joylashgan) topilgan suyakka bitilgan tasvirlar va Panjikent devoriy suratlarida aks etgan jangchilar tasvirlari Markaziy Osiyo hududlaridan topilgan turkiy qabilalarga tegishli turli buyumlarda aks etgan jangchilar tasvirlari bilan deyarli bir xil³⁴. Demak, ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyo o‘troq dehqonchilik hududlari aholisi, jumladan Xorazm, Toxariston va So‘g‘d kabi kichik davlatlar harbiy san‘ati taraqqiyotida ko‘chmanchi qabilalar ta‘siri juda kuchli bo‘lgan. Buni yozma manbalar ma‘lumotlari ham to‘la tasdiqlaydi. Jumladan, arab bosqini davriga oid manbalarning deyarli barchasida turk xoqonligi qo‘shinlari arablarga qarshi mahalliy davlatlarni qo‘shin bilan qo‘llab – quvvatlab turganliklari haqida ma‘lumot beradilar³⁵.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi ikkinchi paragrafi “X – XIII asrlarda O‘rta Osiyo davlatlarida harbiy soha taraqqiyotiga ko‘chmanchi qabilalar ta‘siri masalasi” deb nomlanib, unda X – XIII asrlarda O‘rta Osiyo davlatlarida harbiy soha taraqqiyotiga ko‘chmanchi qabilalar ta‘siri masalasi tahlil qilingan.

Ilk o‘rta asrlarda boshlangan turkiylashish jarayoni, O‘rta Osiyoning o‘troq dehqonchilik aholisi va davlatlari harbiy ish sohasida ham yaqqol ko‘zga tashlanib, harbiy qurol – aslahalar turlari, jang uslublari va umuman harbiy san‘at sohasida ko‘chmanchi turkiy qabilalar harbiy san‘ati jadallik bilan kirib kela boshladi. O‘rta Osiyoda X – XIII asrlarda vujudga kelgan davlatlar harbiy san‘ati taraqqiyoti tarixini tahlil qiladigan bo‘lsa, bu davrlarda nafaqat O‘rta Osiyo miqyosida balki, butun musulmon dunyosida turkiy qabilalar vakillaridan tashkil topgan yollanma qo‘shin yoki saroy gvardiyasi asosiy o‘rin tutganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, Somoniylar davlatidan boshlaydigan bo‘lsa, turkiy qabila vakillari g‘ulomlaridan iborat harbiy kuchlar dastlab davlat taraqqiyotiga xizmat qilgan bo‘lsa, keyinchalik esa ularning rahbarlari bo‘lgan hojiblar yoki takinlar davlat siyosiy hayotida shu darajada katta mavqega erishganlarki, hatto hukmron sulola vakillaridan kimni taxtga

³² Литвинский Б.А. Сложносоставной лук в древней Средней Азии (К проблеме эволюции лука на Востоке) // СА. 1966. – № 4. – С. 51-69.; уана қаранг: Савин А.М., Семёнов А.И. О центрально-азиатских истоках лука хазарского типа. // Военная археология. Оружие и военное дело в исторической и социальной перспективе. СПб: 1998. – С. 290-295.

³³ Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Среднего Востока. // – Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1987. – С. 56-66.

³⁴ Худяков Ю.С. Вооружение центральноазиатских кочевников в эпоху раннего и развитого средневековья. – Новосибирск: Наука, 1991. – 192 с.; Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Среднего Востока. // Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1987. – С.56-66.; Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. Живопись, скульптура. – М.: «Искусство», 1973. – 68 с.

³⁵ Асадов Ф.М. Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. – Баку: Ёлым, 1993. – 204 с.

chiqarish masalasini ham ular hal qilganlar. Natijada, Somoniylar davlatidan turk hojibi Alptegin asos solgan G‘aznaviylar davlati ajralib chiqqan bo‘lsa, O‘rta Osiyo shimoli – sharqidan va Orolbo‘ylaridan turli ko‘chmanchi turkiy qabilalar kirib kela boshlagan. Shimoli – sharqdan qarluqlar, jikillar va yag‘molar kirib kelib Qoraxoniylar davlatiga asos solgan bo‘lsalar, o‘g‘uz qabilalari Saljuqiylar davlatiga asos solganlar³⁶. Bu davlatlar inqirozi yana bir davlat – Xorazmshoh – anushteginlar davlatining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Muhimi bu davlatga ham turkiy g‘ulomlardan bo‘lgan Anushtegin asos solgan edi³⁷.

Umuman olganda, X – XIII asrlar Sharqining deyarli barcha davlatlarida turkiy ko‘chmanchi qabilalarning, ayniqsa dastlab yashash makoni Orolbo‘yi hududlari bo‘lgan o‘g‘uz va qipchoqlar qabila uyushmalarining o‘rni nihoyatda baland bo‘lib, bu harbiy san‘at sohasida ham o‘z aksini topgan.

Orolbo‘yi ko‘chmanchi elatlari aholisi qurol-aslahalarni tayyorlashda bir qancha bosqichlardan o‘tgan. Muhimi, bu bosqichlar, o‘troq – dehqonchilik hududlari davlatlari bilan uzviy aloqalarning mavjudligi natijasida, qurol aslahalarning o‘rta asrlarlarda takomillashuvi davlatchilik siyosati bilan bog‘liq bo‘ldi. Yuqorida sanab o‘tilgan davlatlar va sulolalar, X – XIII asrlarda siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, harbiy salohiyati va qurol aslahalariga muhtojligi, harbiy san‘at sohasining rivojlanishini yuqori cho‘qqiga ko‘tardi.

O‘rta Osiyoda X – XIII asrlarda mavjud bo‘lgan davlatlar tarixi umumiy holatda yetarlicha o‘rganilgani holda, bu davlatning harbiy salohiyati, qurollanishi darajasi, harbiy jang usullari, shakllari, va ayniqsa harbiy san‘ati sohasi taraqqiyotiga ko‘chmanchi qabilalar ta’siri qaydarajada bo‘lganligi masalasi nihoyatda sust o‘rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu davlatlarning nafaqat harbiy, balki, siyosiy hayotida ham ko‘chmanchi turkiy qabilalar vakillari egallagan mavqei haqidagi turli davrlarda va turli tillarda yozilgan manbalarda mazkur mavzu yuzasidan juda qisqa ma’lumotlar berib o‘tilgan xolos.

³⁶ Негматов Н. Н. Государство Саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX–X вв.). – Душанбе: Дониш. 1977. – С. 33-57.; Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии. – Ашхабад: Ёлым, 1969. – 297 с.; о‘sha muallif: Селджукиды и Туркмения в XI–XII вв. – Ашхабад: Ёлым, 1973. – 165 с.; Караев О. История Караханидского каганата (X - начало XIII в.). Фрунзе: Ёлым, 1983. – 301 с.

³⁷ Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов. // – М., 1986. – С.10.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining harbiy qurol-aslahalarni ishlab chiqarish qay darajada bo‘lganligi, voha aholisi qanday harbiy qurol – aslahalardan foydalanganliklari, voha aholisi harbiy jarayonlarda qo‘llagan taktika, strategiyasi masalalarini faqat yozma manbalar ma‘lumotlari orqali tadqiq va tahlil qilib bo‘lmaydi.

2. Qadimgi va o‘rta asrlar Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari manzilgohlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va shu tadqiqotlar jarayonida topilgan ashyolarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, ularni yozma manbalar ma‘lumotlari bilan umumlashtirgan holda o‘rganish asosidagina kutilgan natijalarga ega bo‘lish mumkin. Darhaqiqat yozma manbalarda qurol-aslahalarning ashyosi, uning shakli to‘g‘risida ma‘lumot bersa, moddiy ashyolar esa tarixiy davr va uning turli bosqichlarida shakllanish jarayonini yoritishda qo‘l keladi. Qurol-aslahalarning xilma-xilligi ajdodlarimiz harbiy mazmunga ega bo‘lgan qurollarni ishlab chiqarishda jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos bilimga ega bo‘lganliklarini izohlaydi.

3. Ma‘lumki, O‘rta Osiyo o‘troq – dehqonchilik vohalari aholisining uzoq vaqt jangavor ko‘chmanchi qabilalar bilan qo‘shnichiligi harbiy san‘at taraqqiyotiga ta‘sir qilgan eng asosiy omillardan hisoblanib, bevosita shu ko‘chmanchi qabilalar ta‘sirida tarixan shakllangan harbiy san‘ati doimo o‘zgarishlarga uchrab turgan hamda davrlar o‘tishi bilan voha aholisi harbiy san‘ati sohasida ham o‘z davri uchun o‘ziga xos innovatsion yangiliklar joriy qilib borilgan. Ko‘chmanchilarning harbiy san‘at taraqqiyotidagi o‘rni ana shunda.

4. Tarixning barcha davrlarida ham samarali hujum uyushtirish yoki ishonchli himoyalani uchun kishilar yirik harbiy ittifoqlarga birlashishga majbur bo‘ldilar. Ko‘chmanchilar ilk konfederatsiya birlashmalari davridayoq harbiy lashkarlar tuzila boshlandi. Harbiy yetakchilarning jamiyat hayotidagi ahamiyati oshib bordi. Shu tariqa urushlar va harbiy san‘at tarixi boshlandi.

5. Qadimgi davr va o‘rta asrlardagi harbiy istilochilik yurishlarini umuman urushlarni keltirib chiqargan sabablar ichida iqtisodiy faktorlar yetakchi o‘rinda turganligini ko‘ramiz. Jumladan, ko‘chmanchi chorvador xalqlarning o‘troq dehqonchilik xo‘jaliklariga uyushtirgan harbiy bosqinlari ham ko‘p hollarda yangi yerlarga, sero‘t yaylovlarga bo‘lgan ehtiyoj oqibatida kelib chiqqani holda, ikkinchi navbatda o‘zlarining iqtisodiy muammolarini talonchilik yurishlari yo‘li bilan hal qilishga urinishlari oqibati o‘laroq, o‘troq dehqonchilik voha va vodiylariga doimo bosqinlar uyushtirib turganlar.

6. Harbiy to‘qnashuvlarning kelib chiqishiga olib kelgan keyingi faktorlar sifatida siyosiy yoki ijtimoiy sabablarni ko‘rsatish mumkin. Jumladan, yirik siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilgan harbiy-istilochilik urushlari odatda kuchli markazlashgan davlat boshqaruviga, qudratli harbiy qo‘shinlarga ega bo‘lgan davlatlar tomonidan olib borilgan. Bu urushlardan asosiy maqsad boshqa xalqlar, mamlakatlar ustidan siyosiy hukmronlik o‘rnatish va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotni qattiq nazorat qilishga qaratilgan edi.

7. Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san‘ati O‘rta Osiyodagi boshqa xalqlar harbiy san‘ati bilan chambarchas bog‘liqlikda shakllandi va rivojlandi.

8. Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mudofaa inshootlarini barpo etish an‘anasi bronza davriga borib ancha keng yoyildi. Mintaqaning eng qadimgi sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan Baqtriya va Marg‘iyonada yashagan aholi rivojlangan bronza davridan boshlab mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan saroy va ibodxonalar barpo eta boshlagan. Xom g‘ishtdan qurilgan mudofaa devorlari esa aholi manzillarini dushman hujumlaridan saqlash uchun borpo etilganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, mudofaa inshootlari harbiy san‘atning ajralmas bir qismi bo‘lib, ularni o‘rganish o‘zbek xalqi me‘morchiligi, fortifikatsiya inshootlarini barpo etish va foydalanish masalalarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

9. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash lozimki, O‘rta Osiyoda qadimgi va o‘rta asrlar davrida tashkil topgan markazlashgan kuchli davlatlari davrida o‘zbek xalqi harbiy san‘ati o‘z davri uchun ancha yuksak darajada rivojlangan edi va buni yozma manbalar va arxeologik ashyolar to‘liq tasdiqlaydi. Bu taraqqiyotda ko‘chmanchi qabilalarning o‘rni beqiyos albatta. Ayniqsa, qoraxoniylar va saljuqiylar davlatlari aynan ko‘chmanchi qabilalar tomonidan asos solinganligi natijasida ularning harbiy san‘ati aynan ko‘chmanchilarning harbiy san‘atidan iborat edi.

10. Jamiyatning taraqqiy etib borishi, ya‘ni o‘troq manzilgohlarning paydo bo‘lishi, qadimgi davlatlarning shakllanishi, muntazam armiyaning tuzilishi aks ta‘siri sifatida ko‘chmanchi qabilalarda harbiy qurol-yarog‘larga doimo ehtiyojni keltirib chiqargan hamda shu bilan birga qurol-yarog‘lar turlari ko‘payib, takomillashib borgan.

11. Orolbo‘yi hududida yashagan sak – massaget qabilalari og‘ir qurollangan otliq jangchi turlaridan biri – katafraktariylar turiga asos solib, nafaqat O‘rta Osiyo balki, jahon harbiy san‘ati taraqqiyotiga munosib hissasini qo‘shgan. Jumladan, Issiq va Chirikrabot yodgorliklaridan topilgan jangchilar qabrlari va ko‘plagan qurol – aslahalar turlari shunday fikr bildirishga to‘liq asos bo‘la oladi.

12. Ushbu mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va qo‘lga kiritilgan natijalar Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining qadimgi va o‘rta asrlar davrlardagi harbiy san‘ati tarixini, xususan, qurol-yarog‘lar turlari, ularning evolyutsiyasi, jang taktikasi masalalarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif** va **tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini Orolbo‘yi ko‘chmanchilari harbiy san‘ati tarixiga doir yangi ma‘lumotlar bilan boyitish, shuningdek zamonaviy turizmni rivojlantirish borasidagi muzey ekspozitsiyalarini tashkillashtirish jarayonida Orolbo‘yining tarixi turli davrlariga oid yangi ilmiy axborotdan keng foydalanish, ko‘chmanchi qabilalarga tegishli tarixiy – arxeologik yodgorliklarni ta‘mirlash va qayta tiklash, tarixiy-madaniy parklar va harbiy san‘ati tarixi muzeylarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining harbiy san‘at tarixiga oid ilmiy muammolarning mavjudligi ma‘lum. Bugungi kunda ularni hal qilish Markaziy Osiyo davlatlari tarixchi olimlarining integratsiyasini talab etadi. Zero, bu hududlar hozirgi kunda bir necha respublikalar hududlariga kiradi. Shulardan kelib chiqib,

umumiy tarix va madaniy merosni o'rganishda mintaqa mamlakatlari tarixchi va arxeologlarining hamkorligini tiklash va yangidan yo'lga qo'yish vazifasi dolzarb bo'lib, o'zaro ilmiy aloqalar harbiy san'at tarixining turli muhim masalalarini yanada chuqurroq tadqiq qilish imkonini beradi va bu yo'nalishda xolis ilmiy tamoyillarni qaror toptirishga zamin yaratadi.

Oliy ta'lim va oliy harbiy ta'lim muassasalari talabalari va harbiy maktablar, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanmalar hamda darsliklarni harbiy san'at tarixiga doir yangi ma'lumotlar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega. Zero, bu harakatlar yoshlarni vatanarvarlik, jasorat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БОТИРОВА НАФОСАТ ХУРМАТБЕК КИЗИ

**РОЛЬ КОЧЕВЫХ ПЛЕМЕН ПРИАРАЛЬЯ В РАЗВИТИИ ВОЕННОГО
ИСКУССТВА НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ (VI - XIII ВВ. Н.Э.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

УРГЕНЧ – 2024

Тема диссертационной работы доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете за номером В2021.2.PhD/Tar 901.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: Машарипов Кудрат Юлдашевич
доктор исторических наук, доцент

Официальные оппоненты: Холикулов Ахмаджон Боймахамматович,
доктор исторических наук, профессор.
Абдиримов Раззокберди,
кандидат исторических наук, доцент.

Ведущая организация: Каршинский государственного университета

Защита диссертации состоится « 8 » ноябрь 2024 года в 14 00 часов на заседании Учёного совета PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 по присуждению учёных степеней при Ургенчском государственном университете. Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрировано за № A-14 65). (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00). e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан « 22 » октябрь 2024 года
(реестр протокола рассылки № 12 от « 22 » октябрь 2024 года)



М.К.Сарыбаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент

Х.Х. Матякубов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD), доцент

У.И.Абдуллаев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Изучение истории взаимоотношений кочевых племен с центрами оседло-земледельческой культуры в исторических процессах мирового масштаба является актуальной задачей. В связи с этим объективное изучение роли и значения кочевых племен, которые являются неотъемлемой частью исторического развития народов мира, наряду с политическими, социально-экономическими и культурными процессами, в развитии военной сферы, рассмотрение и оценивание на новой основе их роли во всемирной истории является важным аспектом.

Во многих научно-исследовательских центрах мира, международных фондах и высших учебных заведениях проводятся научные исследования по определению влияния политической и военной деятельности кочевых племен на мирополитические процессы, их военного потенциала, методов боя, стратегии и тактики, места военного искусства кочевых племен в развитии военного искусства народов Востока. В целом, военное искусство, созданное кочевыми племенами, прожившими в регионе, имеет большое значение не только для Восточного мира, но и в развитии военного искусства народов мира. Помимо прочего, письменные источники и данные археологических исследований полностью подтверждают, что роль соседних кочевых племен в развитии военной сферы в странах Средней Азии была несравненной.

Из истории известно, что народы, сыгравшие очень важную роль в развитии военного искусства узбекского народа в древности и средневековье, – бактрийцы, хорезмийцы, сугдийцы, парконцы (ферганцы) – славились как воинские народы или нации на древнем Востоке. Однако для того, чтобы занять столь почетное место в мире, необходимо признать, что роль соседних кочевых племен, историческая судьба которых издревле была единой, несравненна. Но роль и значение кочевых племен региона в развитии военной области в этом направлении недостаточно изучены. В частности, не было сделано окончательных выводов на основе сравнительного анализа письменных источников по этой теме с результатами археологических исследований. В целом, глубокий научный анализ недостаточно изученной информации по данной теме, сравнительный анализ информации разных направлений по теме роли кочевых племен Приаралья в развитии военного искусства народов Средней Азии, всё это имеют важное значение в связи с необходимостью сравнительного рассмотрения и выполнения обобщенных выводов. Поскольку, “Мы отдаем приоритет задаче дальнейшего совершенствования методов и техники подготовки войск на основе углубленного изучения истории национального военного искусства”¹.

Результаты данного исследования в определенной мере служат реализации задач, указанных в постановлениях и указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О стратегии действий по пяти приоритетным

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi Markazi binosini ochish marosimida so‘zlagan nutqi. 2018-yil, 15-iyun // <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>.

направлениям развития Узбекистана в 2017–2021 годах» от 7 февраля 2017 года, № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года, № УП-5181 «О совершенствовании охраны и использования объектов материального культурного и археологического наследия» от 16 января 2018 года, а также при выполнении таких задач, как развитие научно-исследовательской деятельности, указанных в нормативно-правовых документах Кабинета Министров, научное изучение и пропаганда истории и культурного наследия Узбекистана, и в других нормативно-правовых документах по данной сфере деятельности.

